

## NEMIS TILINI O'QITISHDA PDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

*Samarqand viloyati Paxtachi tumani*

*45- umumta'lim maktabi nemis tili fani o'qituvchisi*

***Homidova Nilufar Karimovna***

**Annotasiya.** Maqolada chet tillari, xususan, nemis tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, metod, tog'ri metod, induktiv, tabiiy metod, audiolingual metod.

Dunyoda rivojlanmaydigan narsaning o'zi yo'q, chet tillar ham bundan mustasno emas. Bir tomondan til ijtimoiy hodisa va tizim sifatida kundan-kunga o'zgarib takomillashib borsa, ikkinchi tomondan bu hodisani o'rganuvchi fan ham katta odimlar bilan ilgarilab ketmoqda. O'zligimizni anglash, ichki hissiyotlarimizni tushunish, ularni ifoda etish ham tilimizga, uning bizga bergan imkoniyatlariga bog'liq. Jamiyatni jamiyat, uning rivojini, gullab - yashnashini, taraqqiyotini ta'minlovchi vosita bu - tildir.

Nemis tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi, shuning uchun ham olmon tilini o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturi jamiyat, davlat manfaatlari va talablariga mos kelmog'i hamda javob bermog'i lozim. Mustaqil Respublikamizning jahon jamiyatida tutgan o'rni tobora borayotgan bir paytda uning kelajagini yaratuvchi yoshlarga nemis tilini puxta o'rgatish va masalalarini erkin muhokama qila olish, umuman og'zaki va yozma shaklda muloqot qila olishni o'rgatish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Bu vazifalar yaratilayotgan o'quv dasturi va darsliklarida o'z ifodasini topishi zarur. Mamlakatimiz kelajagi uchun 1997-yil 29 - avgustda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ko'rsatmalari juda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim to'g'risidagi ijtimoiy buyurtma topshiriq bo'lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakillantirish va olmon tilini o'quvchilar maktablarda amaliy, ta'limiy

tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o`rganadilar. Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo`ladi. Maqsad tushunchasi rejalashtirilgan natija, tasavvurdagi oqibat ma`nosini anglatadi. Chet tillarni maktabda amaliy, ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o`rganadilar. Dunyoning barcha burchagida bo`lgani kabi, O`zbekiston hududida ham ona tilidan tashqari o`zga xalqlar tillarini bilish kishilar orasida qadimdan taomil bo`lgan. Chet til o`qitish metodikasida metod atamasi asosan uch ma`noni bildiradi; birinchidan, metodika tarixidagi butun bir yunalish (tarjima – metodi, to`g`ri metod). Ikkinchidan, yuqoridagi yo`nalish tarkibiga kiruvchi o`qitish sestemasi. birinchidan, muallim va o`quvchining o`zaro bog`langan faoliyati usuli (tanishish, mashq qilish va qo`llash metodlari). Chet tili o`qitish tarixida birinchi va ikkinchi metodlar “tarixiy” metodlar nomi bilan uchinchisini esa “chet tili o`qitish jarayonida metodlar” atamasi bilan yuritiladi. Tarixiy metodlar odatda prinsiplardan tashkil topadi, prinsiplar yig`indisi muayyan metodni hosil qiladi. Tarixan metodlar to`rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga “tarjima”, “to`g`ri”, “qiyosiy” va “aralash” so`zlarini aniqlovchi sifatida qo`shib aytiladi. Metodlar tarixi atoqli metodist prof.I.V.Rahmonov tomonidan chuqur o`rganilgan. Tarjima metodining ma`nosini bilib olish qiyin emas. Chet til materiali ona tiliga tarjima qilinadi. Yevropada avvaldan yunon tili, keyinchalik lotin tili o`rgatilganda tarjima tushunish usuli qilib olingan. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIXasr davomida fransuz tili, XXasrda esa ingliz tili va nihoyat nemis tili tarjima orqali o`rganib kelindi. Hozirgacha tarjima metodlari usullaridan foydalanib kelinmoqda. Matnni o`g`zaki tarjima qilish g`ayri metodik usuldir. Matnning ayrim jumalari yoki birikki bo`lagini muayyan maqsadda tarjima qilish man etilmaydi. Lug`atdan foydalanib yangi so`zlarning manolarini ochish maqsadida tarjima qilishga mo`ljallangan kichik matnlar berilishi mumkin.

**To`g`ri metod.** To`g`ri metodda o`qitish chog`ida ona tilini chetlab o`tib chet til so`zi bilan predmet orasida bevosita fikran bog`lanish o`rnatishga urinib ko`rilgan. Ona tili ishtirokisiz chet tilini o`rgatishga intilishlarni to`g`ri metod, induktiv metod, tabiiy metod kabi atamalar bilan yuritiladi. Ushbu metodlardan ko`zlangan asosiy maqsad chet tilini amaliy jihatdan o`rgatishdir. To`g`ri metodning zamonaviy ko`rinishlaridan biri audiolingual, ikkinchisi audiovizual metodlari ko`p tarqalgan. Audiolingual metodning

asoschilari mashhur amerika metodistlari Charlz Korpenter Friz va Robert Ladolardir. Ularning fikrlariga binoan chet tili amaliy va ta'limiy maqsadda o'rganiladi. Til materiallaridan chet til jumllarini (nutq namunalarini) tanlash va o'rgatishga muhim o'rin beriladi. Nutq faoliyati turlarini o'rganish tartibi quyidagicha kechadi: tinglab tushunish-gapirish-o'qish-yozuv. Og'zaki nutq chet tilda aloqa vositasi sifatida, yozma nutq esa og'zaki nutq materialida asosida o'rgatiladi. Muallimlar audiolingual metodning bir qancha ijobiy xossalarini maktab tajribalaridan biladilar. Chunonchi, nutq namunalarining til o'rgatish tartibi birligi darajasida qo'llanilishi, og'zaki nutqning ilgarilashi, og'zaki nutq materialida o'qish va yozishning o'rgatilishi V – VII sinflarda tegishli o'zgarishlar bilan qabul qilingan. Audiolingual metoddan qator jihatlari bilan farq qiladigan audiovizual metod namoyondalari P. Guberina, P. Riuanning ko'rsatmalariga binoan leksik materialni tanlashga alohida etibor berilgan.

**Audiolingual metodd**a esa nutq namunalariga etibor berilgan. Hayotiy mavzularda erkin fikr yuritish uchun 1500 so'z tanlangan. Turli texnikaviy vositalarga ta'lim jarayonida katta o'rin beriladi. Ikkala metodning umumiyligidan tashqari tafovutlar ham bor. Masalan. Audiovizual metodd og'zaki nutq, yozuv va oxirgi navbatda o'qish o'rgatiladi. Maktablarda ushbu metodning ayrim taomillaridan ijodiy foydalaniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jalolov J. Chet tilini o'qitish metodikasi.- Toshkent. "O'qituvchi nashriyoti"1996 y.
2. Saydaliev S. Chet tilo'rgatish metodikasidan ocherklar. -Namangan.- 2004.
3. Saydaliev S. Chet til o'rgatish metodikasidan ma'ruza matnlari. -Namangan2002.
4. Gerhard Neuner und Hans Hunfeld Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts.- Berlin, Muenchen. Langenscheidt 1997